

Mavzu: Biznes-reja ishlab chiqish.

### **Ta'limiylar maqsad:**

Mavzuga doir berilgan ma'lumotlar orqali ularning bilim, malakasini oshirish. Ularga berilayotgan bilim orqali o'z faoliyatini samarali bo'lishiga erishish, jamoadagilar bilan do'stona munosabatda bo'lishiga doir hislatlarini shakllantirish.

### **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

– mavjud axborot manbalaridan iqtisodiyotga oid ma'lumotlarni topa olish;

### **Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:**

– ta'lim muassasasida hamda jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

### **Tarbiyaviy maqsad:**

O'quvchilarda jamoa bilan ishlashda do'stona munosabatda bo'lishi, o'zgalar fikriga hurmat bilan qarash, topqirlik, ijodkorlik hislatlarini shakllantirish. Mavzuda beriladigan, o'quvchilar uchun tarbiyaviy ahamimiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar orqali ularning hulqiy, ahloqiy tushunchalarini shakllantirish.

### **Rivojlantiruvchi maqsad:**

Darsda yoritiladigan mavzu orqali o'quvchilarning shaxsiy, insoniylik xususiyatlarini shakllantirish, motivatsiyaga moillik xususiyatlari, o'z-o'zini shakllantirish, bilimni tahlil qila olish va tizimlashtirish xususiyatlari, o'z fikrini bayon qila olish va uni rivojlantirish, ko'lmunikativ xislatlarni rivojlantirish. O'quvchilarda mavzuga doir bilim, ko'nikma va malaka shakllantirish. Mustaqil fikrlashni o'rgatish.

Yangi bilimlar beruvchi

Interfaol, aqliy hujum, og'zaki, tushuntirish.

Darslik, qo'llanma, kompyuter, DVD, tarqatma materiallar.

Tashkiliy qism: 2 daq.

O'tilgan mavzuni so'rash: 10 daq.

Yangi mavzuni o'rganish: 12 daq.

Yangi mavzuni mustahkamlash: 16 daq.

O'quvchilar bilimini baholash va uygaga vazifa berish: 5 daq.

### **DARSNING BORISHI:**

- Sinf xonasi va o'quvchilarning darsga tayyorligini aniqlash.
- Salomlashish.
- Davomatni aniqlash.

Yillik rejaga asosan berilgan uy vazifasini tekshirish va o'tilgan mavzuni takrorlash.

O'quvchilarni baholash.

1. Yoshlar tadbirkorligining ahamiyati va zarurligi nima bilan izohlanadi?
2. Yoshlar tadbirkorligi klasteri faoliyati nimalardan iborat?
3. Biznes-inkubator nima?

Biznes-reja – tadbirkorlik faoliyatini boshlashdan avval uning tavsifi, faoliyat davri, ko'zda tutilayotgan sarf-xarajat va kutilayotgan foyda kabi muhim jihatlari bayon etilgan tashkiliy-iqtisodiy tavsifdagi hujjat.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, biznes-reja har qanday tadbirkorlik faoliyati uchun muhim va zarurdir. Agar tadbirkor o'z faoliyatini biznesrejasiz boshlasa, mo'ljallangan maqsadga erisha olmasligi mumkin. Biznes-reja tadbirkorlik faoliyatining xaritasi hisoblanib, uning aniq maqsadi, yo'nalishlari va asosiy bosqichlarini belgilab beradi. Tadbirkorlik faoliyati boshlanganidan keyin olingan natijalar reja bilan solishtirib boriladi, mavjud muammolar aniqlanadi. Aks holda, tadbirkorlik faoliyatini boshqarish qiyinlashib ketadi.

Biznes-reja tuzish uning ishtirokchilaridan katta bilim, faoliyatga oid ma'lumotlar, yangi texnologiyalar va bozorlarni bilishni talab etadi. Biznes-reja

tuzishda barcha jihatlarni e'tiborga olmaslik yoki ayrim kamchiliklarni yashirish hisob-kitob ishlarini chalkashtiradi. Bu esa korxona faoliyatini izdan chiqarishi yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli biznes-reja tuzishda malakali mutaxassislar, masalan, huquqshunoslar, iqtisodchilar, buxgalterlar, texnologlar xizmatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqliqdir.

Biznes-reja o'z mohiyatiga ko'ra, quyidagi uch muhim vazifani bajaradi: birinchidan, korxona, firma va kompaniyaning, shu bilan birga, jamoa a'zolarining asosiy maqsad va vazifalarini belgilab beradi; ikkinchidan, g'oya yoki birlamchi loyihaning amaliy harakat dasturi shakliga keltirilgan hujjat sifatida hisob-kitoblar, sarf-xarajatlar, biznesni tashkil qilish va yuritishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida ma'lumot beradi; uchinchidan, faoliyatni moliyalashtirish, kredit resurslaridan foydalanish, shuningdek, sarmoyador sheriklarni hamkorlikka jalb etishda asos vazifasini bajaradi.

Har bir tadbirkor o'z faoliyati, moliyaviy manbalarini hisobga olgan holda o'zi uchun biznes-reja ishlab chiqadi. Shu sababli hamma uchun bir xil mos tushadigan biznes-rejalar mavjud bo'lmaydi.

1. Biznesni rejorashtirish nima uchun zarur?
2. Biznes-reja deb nimaga aytildi?
3. Biznes-rejaning ahamiyatini qanday asoslash mumkin?
4. Biznes-reja tuzish uchun qanday ko'nikmalar taqozo etiladi?

Dars jarayonida faol qatnashgan va baholashga loyiq bo'lgan o'quvchilarni baholash.

Yillik rejaga asosan uyga vazifani berish. Yangi mavzuni konspekt qilish, o'qib kelish.